

YANGI KONSTITUTSIYA - TARAQQIYOT QOMUSI

СООБЩЕСТВО РАЗРАБОТКИ НОВОЙ КОНСТИТУЦИИ

NEW CONSTITUTION-DEVELOPMENT COMMUNITY

*Shoyimqulov Oybek O'razali o'g'li**Toshkent davlat yuridik universiteti**Oybek1shoyimqulov@gmail.com*

+998959503599

Annotation: Mazkur maqolada muallif O'zbekiston Respublikasi Yangi tahriridagi konstitutsiyasini tahlil qiladi, konstitutsiyaning nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi, mavzuga oid shaxsiy fikr va mulohalar yuritadi hamda amaldagi konstitutsiyaning foydali jihatlarini muhokama qiladi.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, demokratik davlat, huquqiy davlat, qonun, referendum, norma, siyosiy jarayon, suveren davlat, senator, Bosh vazir, Konstitutsiyaviy sud.

Аннотация: В данной статье автор анализирует новую редакцию конституции Республики Узбекистан, объясняет теоретические и практические аспекты конституции, высказывает личное мнение и комментарии по теме, а также обсуждает полезные аспекты действующей конституции.

Ключевые слова: конституция, демократическое государство, правовое государство, закон, референдум, норма, политический процесс, суверенное государство, сенатор, премьер-министр, Конституционный суд.

Annotation: In this article, the author analyzes the new edition of the constitution of the Republic of Uzbekistan, explains the theoretical and practical aspects of the constitution, expresses personal opinion and comments on the topic, and also discusses useful aspects of the current constitution.

Key words: constitution, democratic state, rule of law, law, referendum, norm, political process, sovereign state, senator, prime minister, Constitutional Court.

Har bir davlatning o'z taraqqiyot yo'lini belgilovchi ustuvor vazifasi yoki strategiyasi mavjud bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot yo'lini belgilovchi vosita uning konstitutsiyasi hisoblanadi. Chunki O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasida davlatimizning asosiy ustuvor maqsad va vazifalari keltirib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi demokratik talablarga to'laqonli javob berishi bilan dunyo hamjamiyatining e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Chunki asosiy qonunimizda inson qadri, uning huquq va qonuniy manfaatlari kafolatlari bilan bog'liq belgilangan normalar mamlakatimizning

chinakam demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida jahon hamjamiyatidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

So’nggi vaqtarda yurtimizda ro’y bergen siyosiy voqealar butun dunyo e’tiborini o’ziga tortdi. Sababi, mamlakatimizning amaldagi konstitutsiyasiga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish bo'yicha umumxalq muhokamasi (referendum) o’tkazildi hamda referendumdan so’ng konstitutsiyamizga o’zgartirishlar kiritildi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda inson qadri, uning huquq va erkinliklari, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari mustahkamlandi. Bu esa, keng jamoatchilik fikrini ijobiy tomonga o’zgarishiga sabab bo’ldi. Konstitutsiyamizni o’zgartirish bo'yicha umumxalq muhokamasi o’zining ijobiy samarasini ko’rsatdi. Chunki xalqning fikri va holati konstitutsiyani o’zgartirish uchun asos bo’lib xizmat qildi. Bundan oldin ham konstitutsiyamizga o’zgartirishlar kiritilgan edi. Ammo, 2023-yil 30-apreldagi referendumdan so’ng, mamlakatimiz qonunchiligidan tub o’zgarishlar sodir bo’ldi. Bu esa qonunchilik tizimimizning shakllanishi va yangi bosqichga o’tishida muhim ahamiyat kasb etdi. Eslatib o’tish joizki, Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o’zgartish kiritilgan edi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi¹. Umuman, rasmiylarga ko’ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan. Yangi normalarning kiritilishi konstitutsiyamizning jozibadorligi hamda samaradorligini yanada oshirishga xizmat qildi. Xususan, yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 1-moddasida O’zbekistonning davlat holatidagi statusi keng yoritib berildi.

Unga ko’ra, O’zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo’lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning “O’zbekiston Respublikasi” va “O’zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi².

Ushbu normaning qabul qilinishi keng jamoatchilik e’tiroziga sabab bo’ldi. Chunki, ushbu moddaning 1-qismida keltirib o’tilgan ijtimoiy davlat tushunchasini ko’pchilik dastavval tushunmadi. Keyinchalik, tushuntirishlar natijasida O’zbekiston o’zini ijtimoiy davlat deb e’lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqlanish avj olishiga yo’l qo’ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta’lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo’llovga muhtoj fuqarolarni qo’llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag’al oilaning bolalarida ham sog'-salomat o’sib-ulg’ayib, yaxshi ta’lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo’lishi kerak. **Suveren davlat esa** o’z hududida to’la-to’kis mustaqil hukmronlik va mutlaq yurisdiksiyaga ega bo’lish demakdir. **Demokratiya esa** xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va o’z vakillarini

saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki ta'minlanishini ko'zda tutadi. **Huquqiy davlatda** barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliv organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi. Konstitutsiyamizning 1- moddasi o'zgarishi davlatmizning taraqqiyot yo'lini belgilashi demakdir. Chunki endilikda davlatmizda olib borilayotgan barcha islohotlar suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat qurishga qaratiladi. Bejizga **Yangi konstitutsiya - taraqqiyot garovi** deb aytmadik. Chunki unda davlatmizning taraqqiyot yo'li va strategiyasi belgilangan.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda inson huquqlar va erkinliklari anchayin kengaytirilgan. Bu esa xalqaro standartlarga to'liq javob beradi hamda biron bir tashkilot davlatmizni inson huquqlarini ta'minlamaslikda ayblab, unga qarshi sanksiyalar qo'llashni oldini oladi. Misol uchun, konstitutsyaning yangi tahririga asosan, inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilab qo'yilgan. Ya'ni konstitutsiyamizda inson huquqlari birinchi darajali omil deb qaralmoqda. Chunki, rivojlangan davrda yashamoqda ekanmiz inson huquqlarini ta'minlash eng asosiy ustuvor vazifa hisoblanadi. O'zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga binoan, prezidentning vakolat muddati 7 yil etib belgilandi³. Shuningdek, yangi tahrirdagi konstitutsiyaga muvofiq davlat boshqaruvida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ldi:

- Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi;
- Bosh vazir nomzodini endi prezident taqdim etadi;
- Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi;
- Bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik votumi bildirishda Senatning ishtiroki bekor qilindi;
- Korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini prezident taqdimiga binoan saylash Senatning vakolatiga kiritildi;
- Qonunchilik palatasi qonunlar bo'yicha qo'shimcha vakolat oldi;
- Prezident muddatidan ilgari prezident saylovini tayinlashga haqli ekani belgilandi;
- Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi;
- Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi.

Shuningdek, Konstitutsiyamiz, jumladan, qonunchiligidan fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini yanada oshiruvchi normalarni kiritish so'zda emas, amalda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish borasidagi

davlatimiz o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishga yuridik jihatdan muhim va fundamental asos yaratadi. Chunki, amaldagi Konstitutsiyamizga muvofiq, garchi mahalliy vakillik organlarini shakllantirishda fuqarolar ishtirok etsalarda, ammo mahalliy ijro hokimiyyati-viloyat tuman va shahar hokimlari Konstitutsiyamizning 121-moddasiga muvofiq, saylanmaydi,balki, tayinlanishi ko'rsatilgan. *Agarda amaldagi qonunchiligidan hokimlarni ham xalq tomonidan saylanishini kafolatlovchi muhim o'zgartirishni kiritsak, fuqarolarning nafaqat davlatning markaziy organlarini, balki mahalliy organlarini shakllantirishda ham ishtirokini oshirgan bo'lamiz.* Bu

- ✓ *birinchidan, mahalliy ijro hokimiyatining samaradorligini oshirsa,*
- ✓ *ikkinchidan, fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.*

Fikrimni yakuniy xulosalaydigan bo'lsam, Yangi konstitutsiyamiz davlatimiz kelajagining poydevori, islohotlarning huquqiy asosi hisoblanadi. Davlat boshqaruvi tizimimizning tubdan takomillashtirilishi xalqimizga juda ko'plab qulayliklar yaratmoqda. Endilikda yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz dunyoning rivojlangan davlatlaridagi konstitutsiyalar bilan bemalol raqibatlasha oladi. Yangi konstitutsiyamizda berilgan huquq va erkinliklar xattoki, dunyoning rivojlangan davlatlarida ham mavjud emas. Demokratik davlatning zaruriy belgisi demokratik ruhdagi konstitutsiyaning mavjudligida hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ham demokratik davlat sifatida demokratik ruhdagi konstitutsiyaga ega hisoblanadi. Shu boisdan, fuqarolar konstitutsiyamizni umummilliyl boylikdek muhofaza etishlari shart. Shundagina, insonlarda konstitutsiyaga nisbatan legitimlik oshadi. Bu esa samarali boshqaruvi tizimining shakllanishiga hamda huquqbazarliklar soni kamayishiga olib keladi. Shu jihatlarni hisobga olib, hech qanday ikkilanishlarsiz yangi konstitutsiyamizni kelajagimiz poydevori deb atashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Davlat va huquq nazariyasi. Odilqoriyev X.T. 2018.
3. Davlat va huquq nazariyasi. Saydullayev SH.A.pdf